



№5

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA			
1.	Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning byudjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
2.	Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
3.	Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижини модели учун барқарорлик таҳлили	19
4.	Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
5.	Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li, Yo'ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ta'siri	33





JANUBIY KOREYA KINOINDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA TA'SIRI

Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va
diplomatiya universiteti talabasi*

Yo'ldosheva Oygul Zokir qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
“Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: oygulzakirovna@gmail.com*

Annotatsiya. So'nggi yillarda kinoindustriya sohasi ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotga ta'sir o'tkazuvchi muhim sanoatga aylandi. Bu maqolada kino va seriallari butun dunyoda mashhurlikka erishgan Janubiy Koreya davlatining kino sanoati tahlil qilindi. Natijalar koreys kino va seriallari o'z mashhurligini so'nggi yillarda saqlab qolganini va kino eksport hajmi mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltirganini ko'rsatdi. Sanoat Janubiy Koreya davlatining ichki iqtisodiyotiga ham, ya'ni mamlakatda ko'plab odamlar uchun ish o'rni yaratayotgani isbotlandi. Umumiy olganda, maqolada kinoindustriya sohasi shunchaki ko'ngilochar soha emas, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi asosiy sanoat ekanligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Janubiy Koreya kinoindustriyasi, iqtisodiy ta'sir, multiplikator effekti, raqamli platformalar, bandlik, kreativ iqtisodiyot, yumshoq kuch (soft power).

РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ КИНОИНДУСТРИИ ЮЖНОЙ КОРЕИ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Абдукаюмов Элёрбек Улугбек угли

*Студент Университета мировой
экономики и дипломатии*

Юлдошева Ойгул Зокир кизи

*Университет мировой экономики и дипломатии,
преподаватель кафедры “Международная экономика”
E-mail: oygulzakirovna@gmail.com*

Аннотация. В последние годы киноиндустрия превратилась в важную отрасль, оказывающую существенное влияние на экономику многих стран. В данной статье анализируется киноиндустрия Южной Кореи, чьи фильмы и сериалы завоевали всемирную популярность. Результаты показали, что корейские фильмы и сериалы сохраняют свою популярность в последние годы, а объем экспорта кинопродукции приносит большую прибыль экономике страны. Было доказано, что эта отрасль также оказывает положительное влияние на внутреннюю экономику Южной Кореи, создавая рабочие места для большого количества людей. В целом, в статье показано, что киноиндустрия — это не просто сфера развлечений, а одна из ключевых отраслей, стимулирующих экономическое развитие страны.

Ключевые слова: киноиндустрия Южной Кореи, экономическое влияние, мультипликативный эффект, цифровые платформы, занятость, креативная экономика, мягкая сила (soft power).

THE ROLE AND IMPACT OF THE SOUTH KOREAN FILM INDUSTRY ON ECONOMIC DEVELOPMENT





Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li

*Student at the University of
World Economy and Diplomacy*

Yuldosheva Oygul Zokir qizi

*University of World Economy and Diplomacy,
Teacher at the Department of International Economics
E-mail: oygulzakirovna@gmail.com*

Abstract. *In recent years, the film industry has become an important sector influencing the economy in many countries. This article analyzes the film industry of South Korea, whose movies and TV series have gained global popularity. The results show that Korean films and series have maintained their popularity in recent years, and the volume of film exports has brought significant profits to the country's economy. It is proven that the industry also positively impacts South Korea's domestic economy by creating job opportunities for many people. Overall, the article demonstrates that the film industry is not merely an entertainment sector, but a major industry driving the country's economic development.*

Keywords: *South Korean film industry, economic impact, multiplier effect, digital platforms, employment, creative economy, soft power.*

Kirish

Hozirgi paytda dunyoda kreativ iqtisodiyot sektori an'anaviy sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda muhim o'rin egallab kelmoqda. Janubiy Koreya bu borada eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri hisoblanib, o'zining “Hallyu” (Koreya to'lqini) madaniy fenomeni orqali butun dunyoni qamrab oldi. Musiqa, taomlar va kiyim-kechaklar bilan bir qatorda, aynan kinoindustriya ushbu to'lqinning eng asosiy va ajralmas qismiga aylandi.

Koreya kinosi yuqori texnologiyalar va koreys madaniyatini birlashtirgan katta iqtisodiy tizimdir. “Parasite” yoki “Squid Game” kabi loyihalarning global muvaffaqiyati Janubiy Koreyaning “yumshoq kuch” (soft power) siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu sababli, ushbu sohaning iqtisodiy samaradorligini, uning boshqa tarmoqlarga ta'sirini va ish o'rinlari yaratishdagi o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish juda muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi Janubiy Koreya kino sanoatining iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini tahlil qilish, sohaning ish o'rinlari yaratishdagi imkoniyatlarini baholash va uni mamlakatning boshqa tarmoqlari bilan qiyosiy ko'rib chiqishdir.

Adabiyotlar tahlili

Janubiy Koreya kinoindustriyasining, umuman olganda kinoindustriya sektorining iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatishi haqida hozirgacha ko'plab olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, kino va teatrning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rgangan Mammadova va Abdullayev (2025) [1] ushbu sohalarini zamonaviy iqtisodiyotning strategik drayveri deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, ko'pchilik odamlar bu sohani ko'ngilochar soha deb hisoblashadi. Ammo ular bu fikrga qarshi chiqib, bu sohaning iqtisodiyotga yaxshigina ta'sir ko'rsatishini o'rganishdi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kinoindustriya nafaqat mamlakat YaIMini oshiradi, balki texnologiya, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida “multiplikator effekti”ning paydo bo'lishiga olib keladi. Ular buni UNESCO, Motion Picture Association (MPA), Statista va turli milliy statistika saytlaridan AQSh, Hindiston, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Nigeriya misolida o'rganishdi. Shu bilan birgalikda, ular hozirgi kunda rivojlanayotgan raqamli transformatsiya va striming platformalarining kinoindustriya sektoriga nisbatan ijobiy va salbiy tomonlarini aytib o'tishgan. Ular kino sanoatini shunchaki o'yin-kulgi emas, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi barqaror sanoat, degan xulosaga kelishdi.

Janubiy Koreya kino sanoati va uning iqtisodiyotga ta'siri haqida bir nechta olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Jimmyn Parc (2016) [2] Janubiy Koreya





kinoindustriyasi va uning rivojlanish tarixi haqida tadqiqot olib bordi. Maqolaga ko'ra, Janubiy Koreya kinoindustriyasi ko'pchilik o'ylayotganday davlat tomonidan o'rnatilgan qat'iy qoidalar tufayli emas, balki kino sohasidagi senzura va cheklovlarni yumshatish orqali rivojlanishga erishdi. Maqolada 1960-yillardan boshlab qo'llanilgan import va ekran kvotalari kabi himoya siyosatlarini sanoatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda kutilgan natijani bermagani ilmiy asoslangan. Tadqiqotda Janubiy Koreya kinosining 1990-yillardagi yuksalishi proteksionizm tufayli emas, balki Hollywood bilan to'g'ridan-to'g'ri raqobatga kirishishi va liberallashtiruv natijasida sodir bo'lgani ta'kidlanadi. Sohadagi haqiqiy iqtisodiy burilish yirik konglomeratlarning (Samsung, CJ, Lotte) kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, ular sanoatga zamonaviy menejment va marketing tizimini joriy etganlar.

Janubiy Koreya kino va seriallarining iqtisodiy samaradorligini o'rganishda S. S. Kim, J. Agrusa, H. Lee va K. Chon [3] tomonidan o'tkazilgan tadqiqot muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mualliflar o'sha davrda mashhur bo'lgan “Qish sonatasi” (Winter Sonata) dramasi misolida kinoindustriyaning turizmga ta'sirini o'rganishgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu serial nafaqat Koreyaning xalqaro imijini yaxshilagan, balki bir yil ichida Yaponiyadan kelgan sayyohlar oqimini 35,5% ga oshirgan. Maqolada asosiy e'tibor “kino-turizm” (film-induced tourism) tushunchasiga qaratilgan bo'lib, unda aytilishicha, tomoshabinlar ekran orqali ko'rgan joylarini o'z ko'zi bilan ko'rish uchun pul sarflashga tayyor bo'ladilar. Sayyohlar nafaqat suratga olish maydonchalariga tashrif buyurishadi, balki mamlakat taomlari, modasi va esdalik sovg'alariga ham katta mablag' sarflashadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatdagi mehmonxonalar, restoranlar va transport sohalari qo'shimcha daromad keltiradi. Ushbu maqola kinoindustriya nafaqat san'at, balki turizmni rivojlantiruvchi kuchli iqtisodiy vosita ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur ilmiy adabiyotlarda kinoindustriyaning iqtisodiyotga ta'siri turli xil sohalar kesimida o'rganilgan. Xususan, tadqiqotlar kino sanoati nafaqat YaIM o'sishiga, balki turizm, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda ham multiplikativ ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya tajribasi kinoindustriyaning rivojlanishi qat'iy qoidalar orqali emas, balki cheklovlarni yumshatish va global raqobat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Biroq, ushbu tadqiqotlarda aynan Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi ko'p tomonlama ta'siri yetarli darajada tizimli va raqamli tahlil qilinmagan. Shu sababli, ushbu maqolada mazkur masalalar chuqurroq o'rganiladi.

Metodologiya

Ushbu maqolada Janubiy Koreya kino sanoatining iqtisodiy ta'sirini o'rganish uchun yillar kesimidagi statistik tahlil va sifat tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot asosan uchta bosqichdan iborat:

1. Tomoshabinlar qiziqishini aniqlash (IMDb tahlili)

Dastlab, 2019–2025-yillar oralig'ida butun dunyoda koreys filmlariga bo'lgan global talabni aniqlash maqsad qilindi. Kinoteatrlardagi aniq chipta sotuvlari haqida ma'lumot topish qiyin bo'lgani uchun, muqobil variant sifatida IMDb platformasidagi foydalanuvchilar faolligi asos qilib olindi. Bunda filmning reytingi emas, balki unga necha kishi baho bergani (votes) muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Masalan, dunyodagi eng mashhur film (“The Shawshank Redemption”) 3,2 mln marta baholanganini hisobga olib [4], qiziqish darajalari quyidagicha shkalalarga ajratildi:

- Juda yuqori: 1 mln dan ko'p baholangan (global hit);
- Yuqori: 300 000–1 000 000 oralig'ida;
- O'rtacha: 50 000–300 000 oralig'ida;
- Past: 10 000–50 000 oralig'ida;
- Juda past: 10 000 tadan kam.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda koreys kontenti asosan striming platformalarda





ommalashgani hisobga olinib, metodikaga Netflix global reytinglari ham qo'shimcha ko'rsatkich sifatida kiritildi [5]. Shu tartibda 2019–2025-yillar oralig'idagi har bir yil uchun bittadan film yoki serial tanlab olinib, uning ommaviyligi tahlil qilindi.

2. Iqtisodiy foyda va multiplikator koeffitsiyenti

Ikkinchi bosqichda, kino sanoati keltirayotgan umumiy daromad hisoblandi va hisoblashda Oxford Economics tadqiqotlariga tayanildi [6]. 2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bu sohada multiplikator koeffitsiyenti 2.45 ni tashkil etgan. Bu degani, kino sanoatiga kiritilgan har 1 dollar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ta'sir qilib, jami 2.45 dollar foyda keltiradi. Hozirgi raqamli texnologiyalar va striming platformalari rivojini hisobga olib, bu koeffitsiyent 2.7 deb belgilandi. Umumiy iqtisodiy ta'sir (daromad) quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$\text{Umumiy iqtisodiy ta'sir} = \text{Eksport hajmi} \times 2.7$$

3. Ish o'rinlari yaratilishi

Oxirgi bosqichda kino sanoati bandlik darajasiga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqildi. Bunda ham Oxford Economics uslubidan foydalanib [6], ish o'rinlari multiplikatori 2.5 deb olindi (2018-yildagi 2.23 ko'rsatkichidan biroz yuqori, chunki sun'iy intellekt va yangi texnologiyalar hisobiga yangi kasblar ko'paygan). Bu yerda bilvosita ish o'rinlari tushunchasini hisobga olish muhimdir. Masalan, kino suratga olish jarayoni ko'payishi bilan unga aloqador bo'lgan mehmonxonalar, transport va ovqatlanish xizmatlarida ham qo'shimcha ish joylari yaratiladi. Ya'ni, bitta rejissyorning ishi o'z-o'zidan bir nechta xizmat ko'rsatuvchi xodimga ehtiyoj tug'diradi. Bilvosita ish o'rinlari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Bilvosita ish o'rinlari} = \text{Bevosita ishchilar soni} \times 2.5$$

Natijalar

1. IMDb va striming platformalari orqali global qiziqish tahlili

Tadqiqotning birinchi qismida 2019-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda Janubiy Koreya kontentiga (film va seriallariga) bo'lgan qiziqish IMDb platformasidagi ovozlar soni va Netflixdagi ommaviylik asosida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, koreys kontenti nafaqat o'z pozitsiyasini saqlab qolgan, balki global dunyodagi mashhurligi ham ancha ortgan.

Yillar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlar:

- 2019-yil (“Parasite”): Ushbu film 1,2 mln dan ortiq ovoz bilan bizning shkalamiz bo'yicha “Juda yuqori” (Global Hit) darajasiga chiqdi. Bu Janubiy Koreya kinosining zamonaviy iqtisodiy yuksalishi uchun po'ndevor bo'ldi.

- 2020–2021-yillar (“Crash Landing on You” va “Squid Game”): COVID-19 davrida “Crash Landing on You” 58 000 ovoz bilan “O'rtacha qiziqish” darajasini ko'rsatgan bo'lsa, 2021-yilda “Squid Game” 300 000 dan ortiq ovoz va Netflixdagi rekordlari bilan qiziqishni “Yuqori” darajaga olib chiqdi.

- 2022–2024-yillar (“All of Us Are Dead”, “The Glory”, “Queen of Tears”): Bu davrda asosan seriallar mashhur bo'ldi. “All of Us Are Dead” (89 000) va “The Glory” (43 000) kabi loyihalar barqaror auditoriyani ushlab turdi. Shuni ta'kidlash kerakki, IMDb ovozlari kamroq ko'ringan yillarda ham, bu loyihalar Netflixning global Top-10 taligida haftalab birinchi o'rinni egallab turgan.

- 2025-yil (“Squid Game 2”): O'tgan yilda premyera qilingan ushbu loyiha allaqachon 754 000 dan ortiq ovoz (kutilmalar va dastlabki reaksiyalar) bilan yana “Yuqori” qiziqish darajasiga qaytdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy kinoteatrlarda tomoshabin soni kamaygan yillarda ham (masalan, 2021–2022), Netflix kabi striming platformalari koreys kontentiga bo'lgan qiziqishni ushlab turgan. Seriallarning mashhurligi koreys mahsulotlari, turizmi va tiliga bo'lgan qiziqishni oshirib, iqtisodiyotga multiplikator effekti orqali ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.


2019-yildagi “Parasite” fenomenidan boshlangan rivojlanish hali to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, Janubiy Koreya kontentiga bo'lgan global talab hali ham juda yuqori va 2025-yilga kelib bu trend yangi loyihalar hisobiga yana o'sishda davom etmoqda.





2. Eksport daromadlari va iqtisodiy multiplikator effekti tahlili

Ikkinchi qismda Janubiy Koreya kino sanoatining eksport daromadlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga keltirayotgan umumiy iqtisodiy foydasi tahlil qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2019–2024-yillar oralig'ida kino eksporti barqaror dinamikani ko'rsatib kelmoqda.




1-rasm. Janubiy Koreya kino eksporti (ko'k) va uning umumiy iqtisodiy multiplikator ta'siri (to'q sariq), mln. AQSH dollarida. Manba: Hallyu White Paper, 2024 [12]

Xususan, 2019-yilda eksport hajmi 73 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich o'zining cho'qqisiga, ya'ni 88 mln dollarga yetgan. Tadqiqot metodologiyasida belgilangan 2.7 multiplikator koeffitsiyenti qo'llanilganda, 2019-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda kino sanoati mamlakat iqtisodiyotiga jami 1 milliard 239 million dollar (\$1.24 mlrd) miqdorida umumiy iqtisodiy foyda keltirgani aniqlandi.

Masalan, 2024-yilning o'zida 86 mln dollarlik bevosita eksportning boshqa sohalarga (turizm, xizmat ko'rsatish, transport) ko'rsatgan multiplikativ ta'siri natijasida jami daromad 232,2 mln dollarni tashkil etgan. Kino sanoatining iqtisodiy o'rnini tushunish uchun uni boshqa eksport tarmoqlari bilan solishtirish metodologik jihatdan muhimdir. Masalan, Korea Customs Service ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreyaning ayrim turdagi tayyor tibbiy dori vositalari yoki maxsus kosmetik xomashyolari eksporti yillik 80–90 mln dollarni tashkil etadi [7]. Bu esa kino sanoatining sof eksport qiymati bo'yicha yirik ishlab chiqarish tarmoqlari bilan tenglasha olishini ko'rsatadi. Biroq, kino sanoatining boshqa eksport tovarlaridan asosiy farqi va ustunligi uning “soft power” (yumshoq kuch) xususiyatiga egaligidir. Agar moddiy tovar eksporti faqat o'sha mahsulot qiymatini yaratsa, muvaffaqiyatli film yoki seriallar butun boshli Koreya madaniyati va brendiga bo'lgan global qiziqishni oshiradi va bu o'z navbatida boshqa sohalarga ham katta miqdorda daromad keltiradi.

3. Sanoatda bandlik darajasi va ish o'rinlari multiplikatori tahlili

Tadqiqotning uchinchi qismida 2019–2024-yillar oralig'idagi bevosita bandlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi va metodologiyada belgilangan multiplikator koeffitsiyenti (2.5) orqali bilvosita ish o'rinlari soni hisoblab chiqildi.



2-rasm. Bevosita va bilvosita bandlik ko'rsatkichlari, ming kishi. Manba: KOFIC [10]

Korean Statistical Information Service (KOSIS) ma'lumotlariga ko'ra [8], 2019-yilda





sohada bandlik eng yuqori nuqtada (34 100 kishi) bo'lgan bo'lsa, pandemiya davrida (2020–2021) kinoteatrlar faoliyati cheklanishi hisobiga ish o'rinlari qariyb 14 foizga kamaygan. Biroq, 2022-yildan boshlab raqamli striming platformalari (Netflix, Disney+) uchun kontent ishlab chiqarish hajmi oshishi natijasida bandlik darajasi qayta tiklandi va 2024-yilga kelib bevosita ishchilar soni 33 500 nafarga yetdi.

Kino sanoatidagi bandlik ko'rsatkichlarini Janubiy Koreyaning eng yirik korporatsiyalari bilan solishtirish sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini aniqroq ochib beradi. Masalan, Samsung Electronics kompaniyasining 2024-yilda Janubiy Koreyadagi jami ishchilari soni (ma'lumotlarga ko'ra 125 000 kishi) bilan solishtirilganda, kino sanoati o'zining multiplikator effekti orqali yaratayotgan jami ish o'rinlari (117 250 kishi) bo'yicha deyarli mamlakatning eng yirik texnologik kompaniyasiga tenglashadi [9]. Bu shuni anglatadiki, Janubiy Koreya kino sanoati va unga bog'liq bo'lgan bilvosita tarmoqlar (turizm, logistika, IT va xizmat ko'rsatish) birgalikda butun boshli Samsung korporatsiyasi kabi ko'plab odamlarni ish bilan band qilmoqda. Shunday qilib, Janubiy Koreya kinoindustriyasi mamlakat iqtisodiyoti uchun shunchaki madaniy vosita emas, balki Samsung kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik ish bilan ta'minlovchi sanoat hisoblanadi.

Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari Janubiy Koreya kino sanoatining shunchaki ko'ngilochar soha emas, balki mamlakat iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biri ekanini ko'rsatadi. IMDb va Netflix platformalaridagi qiziqish darajasi bilan eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik shuni isbotlaydiki, dunyodagi mashhurlik bevosita mamlakat uchun katta miqdordagi iqtisodiy foyda yaratmoqda. Ayniqsa, sanoatning bandlik darajasi bo'yicha Samsung Electronics kabi gigant kompaniya bilan raqobatlashishi, kinoindustriyaning mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini yaqqol ochib beradi.

Bu tahlillar haqiqatga ancha yaqin, chunki Janubiy Koreya hukumati, jumladan Korean Film Council [10], ham aynan “Hallyu” (Koreya to'liqini) effektini mamlakat brendini ko'taruvchi asosiy “soft power” sifatida tan oladi — bu KOFICE tomonidan chop etilgan “Hallyu” bo'yicha yillik hisobotlarda ham izchil qayd etilgan [11][12]. Biroq, ushbu maqolaning asosiy kamchiligi shundaki, hisob-kitoblarda ishlatilgan multiplikator koeffitsiyentlari (2.7 va 2.5) so'nggi yillardagi o'zgarishlar asosida muallif tomonidan taxminiy ko'rsatkich sifatida olingan. Haqiqiy koeffitsiyentlar iqtisodiy holatlarga qarab biroz farq qilishi mumkin, ammo bu umumiy mazmunni o'zgartirmaydi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun bir qancha takliflarni ko'rib chiqish mumkin. Masalan, barcha daromadlar faqat Netflix kabi chet el kompaniyalariga ketib qolmasligi uchun Koreyaning o'zining striming platformalarini butun dunyoga tanitishi kerak. Shuningdek, filmlar olingan joylarni turistik markazlarga aylantirish orqali iqtisodiy foydani yanada oshirish imkoniyati bor (misol: “Uzuklar Hukmdori”, Yangi Zelandiya). Bu kabi takliflar kino sanoati orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreya kino sanoatini shunchaki madaniy ko'ngilochar soha emas, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi ulkan sanoat tizimi deb hisoblashimiz mumkin. Tadqiqot natijalari ushbu sohaning global miqyosda yuqori talabga ega ekanini hamda eksport, turizm va xizmat ko'rsatish kabi boshqa tarmoqlar orqali iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shuningdek, kino industriyasi bevosita va bilvosita ish o'rinlarini yaratish orqali bandlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Umuman olganda, kino sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mammadova, E., & Abdullayev, A. (2025). Impact of theatre and cinema culture on





- economy. Luminis Applied Science and Engineering, 2(3).
<https://egarp.lt/index.php/LUMIN/article/view/380/374>
2. Parc, J. (2016). The effects of protection in cultural industries: The case of the Korean film policies. International Journal of Cultural Policy.
<https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10286632.2015.1116526>
3. Kim, S. S., Agrusa, J., Lee, H., & Chon, K. (2007). Effects of Korean television dramas on the flow of Japanese tourists. Tourism Management.
[https://www.researchgate.net/publication/247230776_Effects_of_Korean_Television_Dramas_o
n_the_Flow_of_Japanese_Tourists](https://www.researchgate.net/publication/247230776_Effects_of_Korean_Television_Dramas_on_the_Flow_of_Japanese_Tourists)
4. IMDb. (n.d.). Internet Movie Database. <https://m.imdb.com>
5. Netflix. (n.d.). Official website. <https://www.netflix.com>
6. Motion Picture Association. (2019). The economic contribution of film and television in South Korea in 2018. [https://www.mpa-apac.org/wp-
content/uploads/2019/12/MPA_South_Korea_report_2018_ENG_WEB.pdf](https://www.mpa-apac.org/wp-content/uploads/2019/12/MPA_South_Korea_report_2018_ENG_WEB.pdf)
7. Korea Customs Service. (n.d.). Trade Statistics Portal.
https://tradedata.go.kr/cts/index_eng.do
8. Korean Statistical Information Service (KOSIS). (n.d.). Statistical database.
<https://kosis.kr/eng/>
9. Samsung Electronics. (n.d.). The number of employees.
[https://www.samsung.com/global/sustainability/policyfile/AZA5bnDqHM8ALYNu/Samsung_El
ectronics_The_number_of_employees_en.pdf](https://www.samsung.com/global/sustainability/policyfile/AZA5bnDqHM8ALYNu/Samsung_El
ectronics_The_number_of_employees_en.pdf)
10. Korean Film Council. (n.d.). Official website.
<https://www.koreanfilm.or.kr/eng/main/main.jsp>
11. Korean Foundation for International Cultural Exchange (KOFICE). (2024). Hallyu white paper 2023.
12. Korean Foundation for International Cultural Exchange (KOFICE). (2025). Hallyu white paper 2024.

